

**“NKMK” AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi tomonidan  
2024-yil I chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

## **HISOBOT**

“Navoiy kon metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o‘rinlarda - Kombinat*) hamda Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi hamkorligida tizimda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha **9 ta** banddan iborat **2024-yil uchun Yo‘l xaritasi** tasdiqlandi.

Kombinat faoliyatiga oid hamda unga tegishli bo‘linmalarning mansabdor shaxslari tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan yoki yo‘l qo‘yilgan monopoliya talablarining buzilishi hamda boshqa salbiy oqibatlar yuzasidan xabar berish uchun jamiyatning rasmiy veb-saytida aloqa kanallari e‘lon qilindi.

Komplayens xizmati tomonidan Kombinat ishchi-xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi hamda “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunlari, shuningdek Kombinatning “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” mazmun mohiyatini tushuntirish bo‘yicha **11 marotaba** huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **853 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta‘minlandi.

Jamiyat tomonidan qabul qilingan jami **1 665 ta** ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

O‘tkazilgan monitoringlar natijasida joriy yil I choragida **2 ta** holatda **manfaatlar to‘qnashuvi** aniqlanib belgilangan tartibda rasmiylashtirildi.

Shuningdek, **21 ta** yuridik va jismoniy shaxslardan murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan **20 tasiga** huquqiy tushuntirish berilgan va qolgan **1 ta** murojaat hozirgi kunda o‘rganib chiqilmoqda.

Kombinat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish, monopoliyaga qarshi komplayens tizimini samarali tashkil etish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va Kombinat ishchi-xodimlari ishtirokida **2024-yil 24-yanvar kuni brifing** o‘tkazildi.